



MAHALLA HUQUQ-TARTIBOT MASKANLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB

MASALALARI

Xidirov Furqat Shukurullveich

Malaka oshirish instituti maxsus-kasbiy fanlar kafedrası

dotsenti, podpolkovnik

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16638138>

ARTICLE INFO

Received: 21st July 2025

Accepted: 25th July 2025

Published: 31st July 2025

KEYWORDS

mahalla huquq-tartibot maskani, jamoat xavfsizligi, huquqbuzarliklar profilaktikasi, profilaktika inspektori, idoralararo hamkorlik, kadrlar salohiyati, raqamli texnologiyalar, jamoatchilik ishtiroki.

ABSTRACT

Mazkur maqolada mahalla huquq-tartibot maskanlarining tashkil etilishi, ularning huquqiy asoslari, faoliyat yo'nalishlari hamda amaliyotdagi muammolari yoritilgan. Xususan, kadrlar yetishmovchiligi, moddiy-texnik ta'minotdagi kamchiliklar, idoralararo muvofiqlashtirishning sustligi va jamoatchilik ishonchi masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, maskan faoliyatini takomillashtirish uchun kadrlarni tayyorlash, raqamli texnologiyalar, jamoaviy hamkorlik va xorijiy tajribalardan foydalanish bo'yicha aniq takliflar berilgan.

So'nggi yillarda O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va aholining huquqiy madaniyatini oshirish borasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar doirasida aholi yashash joylarida xavfsiz muhitni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvarda qabul qilingan "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-sonli qaroriga muvofiq, mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu tizim orqali jinoyatlarning barvaqt oldini olish, mahalliy hududdagi fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash va davlat organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ko'zda tutilgan¹.

Mahalla huquq-tartibot maskanlari – ichki ishlar organlarining hududiy bo'g'inlari sifatida faoliyat yurituvchi yangi model bo'lib, u jinoyatchilikka qarshi kurashishda va huquqbuzarliklar profilaktikasida muhim o'rin egallaydi. Bu maskanlarda xizmat olib borayotgan profilaktika katta va kichik inspektorlari, probatsiya va patrul-post xizmati vakillari, shuningdek, boshqa tegishli xodimlar birgalikda aholini ogohlikka chorlash, nizoli holatlarning oldini olish va muammolarni mahallaning o'zida hal etishga qaratilgan faoliyat bilan shug'ullanadilar.

Biroq, mahalla huquq-tartibot maskanlarining samarali faoliyat ko'rsatishiga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan ba'zi tashkiliy, moddiy-texnik va muvofiqlashtirishga oid muammolar hamon dolzarbligicha qolmoqda. Jumladan, ayrim hududlarda yetarli binolar ajratilmagan, xizmat

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvarda qabul qilingan "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-sonli qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.01.2025-y., 07/25/01/0059-son

xodimlari soni va salohiyati yetarli emas, texnik vositalar bilan ta'minlanganlik darajasi past. Shu bois, ushbu maqolada mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatining ahamiyati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari, shuningdek xorijiy tajribalar asosida takliflar ilmiy tahlil qilinadi.

Mahalla huquq-tartibot maskani – bu ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inida faoliyat yurituvchi maxsus hududiy tuzilma bo'lib, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklar profilaktikasi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash borasida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Bu maskanlar mahalla hududlarida bevosita joylashtirilgan bo'lib, aholiga yaqin joyda xizmat ko'rsatish tamoyili asosida faoliyat olib boradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mazkur institutning joriy etilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvarda qabul qilingan "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-sonli qarori asosida amalga oshirildi. Qarorda respublikada xavfsiz muhitni yaratish, jinoyatchilikni barvaqt aniqlash va unga qarshi samarali kurash olib borishning yangi mexanizmlari sifatida maskanlar faoliyati belgilab berilgan. Ushbu qarorga muvofiq, dastlab huquq-tartibot maskanlari jinoyatchilik holati nisbatan og'ir bo'lgan mahallalarda – xususan, Andijon, Namangan, Farg'ona, Toshkent va Samarqand viloyatlarida tajriba tariqasida yo'lga qo'yildi.

Huquq-tartibot maskanlarining tuzilmasi ham belgilangan bo'lib, unga profilaktika katta inspektori (rahbar), profilaktika inspektori va ularning jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchisi, shuningdek, xizmat hududiga biriktirilgan xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektor, probatsiya inspektori, tezkor vakil, patrul-post xizmati xodimlari kiradi. Maskanlarda, shuningdek, jamoat tartibini saqlashga ko'maklashish uchun Milliy gvardiya bo'linmalari xodimlari hamda boshqa davlat organlari vakillari va jamoatchilik tuzilmalarining vakillari ham faoliyat yuritishi belgilangan².

Ushbu lavozimlar bir joyda jamlangan holda, aholi bilan bevosita ishlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyat sodir etgan va unga moyil shaxslarni nazorat qilish hamda mahalliy muammolarga tezkor va manzilli yondashishni ta'minlashga xizmat qiladi. Maskan faoliyatini esa profilaktika bosh inspektori boshqaradi.

Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-sonli Qonuni bilan mustahkamlangan bo'lib, unda ichki ishlar organlarining jamiyatdagi o'rni, aholi bilan ishlash tamoyillari va profilaktika faoliyatiga oid vazifalari ko'zda tutilgan³.

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan bir qatorda, IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida" 84-sonli buyrug'i bilan mahalla huquq-tartibot maskanlarining namunaviy nizomi, ularning tuzilmasi va faoliyatini baholash mezonlari ham tasdiqlangan⁴. Ushbu hujjat mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatining aniq mezonlar asosida yuritilishini, ularning samaradorligi bo'yicha hisobotlar shaklini va ularni baholash ko'rsatkichlarini belgilab berdi.

Shunday qilib, mahalla huquq-tartibot maskanlari – bu ichki ishlar organlari va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi bog'lovchi muhim institut sifatida faoliyat yuritib, mahallalardagi ijtimoiy muhit barqarorligini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikni kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvarda qabul qilingan "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-sonli qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.01.2025-y., 07/25/01/0059-son

³ O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son Qonuni 15¹-moddasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.12.2024-y., 03/24/1008/0988-son

⁴ O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 84-sonli buyrug'i

Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatining asosiy maqsadi – mahallalarda huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun maskanlarning kundalik faoliyati qator ustuvor yo'nalishlarga qaratilgan bo'lib, ular huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va profilaktik xarakterga ega.

Birinchi navbatda, jinoyatlarning barvaqt oldini olish va ular bo'yicha tezkor axborot yig'ish faoliyati muhim o'rin tutadi. Maskan tarkibida xizmat qiluvchi profilaktika katta va kichik inspektorlari o'ziga birlashtirilgan mikrohududlardagi ijtimoiy xavfli holatlarni aniqlash, jinoyat sodir etishga moyil shaxslarni ro'yxatga olish va ularning ustidan doimiy nazorat olib borish vazifasini bajaradilar. Bu faoliyatda aholi vakillari, mahalla raislari va jamoatchilik bilan bevosita hamkorlik muhim hisoblanadi⁵.

Ikkinchidan, mahalla huquq-tartibot maskanlari orqali huquqbuzarliklar profilaktikasi va targ'ibot-tashviqot ishlari yo'lga qo'yilgan. Xususan, yoshlar bilan alohida ishlash, ularni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etmaslik to'g'risida ogohlantirish, tahlikali guruhlardan ajratish, nodavlat tashkilotlar va ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu yo'nalishda, ayniqsa, oilaviy nizolar, maishiy zo'ravonlik, voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar bo'yicha manzilli yondashuv muhim ahamiyatga ega⁶.

Uchinchidan, maskan doirasida hududiy xavfsizlik infratuzilmasini rivojlantirish ham nazarda tutiladi. Bu jarayonda videokuzatuv kameralari, jamoat joylaridagi yoritish tizimlari, xavfsiz yo'llar va yong'in xavfsizligi vositalari o'rnatilishi muhim hisoblanadi. Mahalla huquq-tartibot maskanlari mahallalarning xavf darajasini baholash asosida hududlarni tahlil qilib, mavjud xavf o'choqlarini bartaraf etish yuzasidan sektor rahbarlari bilan hamkorlikda qarorlar qabul qiladi⁷.

To'rtinchidan, fuqarolar bilan bevosita muloqot va ishonchli muhit yaratish maskan faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Har bir inspektorga birlashtirilgan hududdagi oilalar, yoshlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar bilan tizimli uchrashuvlar tashkil etiladi. Fuqarolarning murojaatlari bevosita maskan orqali ko'rib chiqilib, tezkor choralar ko'riladi. Shu bilan birga, mahalla huquq-tartibot maskanlari jamoatchilik nazorati va ijtimoiy sheriklik tamoyillari asosida faoliyat yuritadi.

Beshinchidan, maskan tarkibidagi xodimlarning o'zaro hamkorligini ta'minlash va ularning samarali faoliyat olib borishi uchun idoralararo koordinatsiya tizimi yo'lga qo'yilgan. Bu esa jinoyat va huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda barcha resurslarni bir joyga jamlash imkonini beradi. Jumladan, maskanda IIVning turli xizmatlari bilan bir qatorda, mahalliy hokimlik, Milliy gvardiya, tibbiyot va ta'lim muassasalari bilan doimiy aloqalar o'rnatilgan.

Shu tarzda, maskan faoliyati murakkab va ko'p yo'nalishli bo'lib, u zamonaviy xavfsizlik talablariga javob beruvchi, tezkor, manzilli va profilaktik yondashuv asosida amalga oshiriladi. Bu tizim orqali jinoyatchilikni kamaytirish, fuqarolar huquqlarini himoya qilish va jamoaviy ishonch muhitini mustahkamlash mumkin bo'ladi.

Aytishimiz mumkinki, mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati joriy etilgani jamoat xavfsizligi va huquqbuzarliklar profilaktikasida muhim burilish yasadi. Biroq, bu tizimning amaliyotda to'laqonli va samarali ishlashi uchun mavjud muammolarni aniqlash va ularni

⁵ Farrux G'Aniyev, Gulandon Ganiyeva, and Nozima Boymuradova. "Birlashtirilgan xududda kriminogen vaziyatni tahlil qilishning asosiy yo'nalishlari" Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, vol. 1, no. 16, 2024, pp. 112-114.

⁶ Xudoyqulov Dostonjon Dilshod o'g'li, and G'aniyev Farrux Taxirjanovich. "Profilaktika inspektorining fuqarolik jamiyati insitutlari bilan o'zaro hamkorligi faoliyatini takomillashtirish va xorijiy davlatlarning tajribalari" Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, vol. 2, no. 1, 2025, pp. 64-69

⁷ O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 84-sonli buyrug'i

bartaraf etish zarur. Maskan faoliyatini joylarda o'rganish, mavjud normativ hujjatlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bir qator dolzarb amaliy muammolar mavjud.

Birinchiidan, kadrlar yetishmovchiligi va malaka darajasining pastligi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ayrim mahallalarda maskan lavozimlari (ayniqsa kichik profilaktika inspektorlari) vakant bo'lib qolgan, faoliyatni yuritayotgan xodimlar esa xizmat ko'rsatish hududi uchun yetarli emas. Bundan tashqari, yangi tashkil etilgan maskanlarda xizmat qilayotgan xodimlarning aksariyati o'z vazifalarini to'liq tushunmaydi, bu esa jamoa ichidagi hamkorlik va tashabbuskorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchiidan, moddiy-texnik ta'minotning yetarli emasligi samaradorlikka to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilmoqda. Ko'plab mahalla huquq-tartibot maskanlari vaqtincha joylarda yoki yaroqsiz binolarda faoliyat olib bormoqda. Ular zamonaviy kompyuter texnikasi, mobil aloqa vositalari, xizmat transporti, videokuzatuv uskunalari bilan to'liq ta'minlanmagan. Natijada, tezkorlik va manzillilik talab etiladigan holatlarda maskan xodimlari kerakli choralarni ko'rishda qiyinchilikka duch kelmoqda.

Uchinchiidan, tashkiliy-muvofiqlashtirishdagi muammolar mavjud. Mahalla huquq-tartibot maskanlari mahalla doirasida bir nechta idoralar bilan bir vaqtda ishlashi talab etiladi (пробаця, УНХХ, ППХ, mahalla raisi, tibbiyot muassasalari va boshqalar). Biroq, bu tashkilotlar o'rtasida funksional chegaralar aniq belgilanmagani, huquq va majburiyatlarning chalkashligi natijasida o'zaro mas'uliyatdan bo'yin tovlash holatlari yuzaga kelmoqda. Bu esa maskanlar faoliyatida byurokratik to'siqlarni kuchaytiradi va tezkorlikni pasaytiradi.

To'rtinchiidan, ortiqcha yuklama va norasmiy topshiriqlar maskan xodimlarining asosiy vazifalariga to'sqinlik qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida" 84-sonli buyrug'ida xodimlarni o'ziga aloqador bo'lmagan tadbirlarga jalb qilish taqiqlangan bo'lsa-da, ayrim joylarda maskan vakillari boshqa idoralar topshiriqlari asosida hisobotlar tayyorlash, yirik yig'ilishlarda qatnashish yoki aholini ro'yxatga olish kabi ishlarga jalb etilmoqda. Bu holat ularning asosiy vazifasi – profilaktika faoliyatiga e'tiborini kamaytiradi va xizmat sifati pasayishiga olib keladi.

Beshinchiidan, fuqarolar ishonchining hali to'liq shakllanmaganini ham muammo sifatida ko'rsatish mumkin. Ko'plab mahallalarda aholi maskanlarni faqatgina "ichki ishlar yangi binosi" sifatida qabul qiladi, ularning ijtimoiy va profilaktik vazifalarini yetarli darajada anglamaydi. Bu esa jamoatchilik bilan ishlash samaradorligini pasaytiradi. Maskan xodimlari tomonidan muntazam tushuntirish ishlari olib borilmagan joylarda bu holat yanada keskinroq ko'zga tashlanadi.

Shunday qilib, maskan faoliyati hozircha ayrim jihatlari bilan mustahkam asosga ega bo'lsa-da, uni keng qamrovli, professional va ishonchli tizimga aylantirish uchun yuqoridagi amaliy muammolarni tizimli hal etish zarur.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarni bartaraf etish uchun mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini zamonaviy xavfsizlik talablari va ijtimoiy ehtiyojlar asosida takomillashtirish zarur. Bu yo'nalishda bir nechta aniq, amaliy va manzilli takliflar ilgari surilishi mumkin.

Birinchiidan, kadrlar bilan ta'minlash va ularni malakali tayyorlash tizimini kuchaytirish lozim. Maskan tarkibiga qabul qilinayotgan xodimlar uchun maxsus malaka talablarini joriy etish, ularni xizmatga tayyorlashda psixologik barqarorlik, kommunikatsiya madaniyati va muomala ko'nikmalariga e'tibor qaratish kerak. Har yili belgilangan asosda qisqa muddatli kurslar, test sinovlari va baholov tizimi orqali xodimlar bilimi va salohiyati yangilanib borilishi zarur.

Ikkinchiidan, moddiy-texnik baza va infratuzilmani yaxshilash maskan faoliyatining barqaror ishlashiga xizmat qiladi. Bu borada, eng avvalo, har bir maskanni doimiy bino bilan ta'minlash, ichki ishlar organlari byudjeti va mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda zarur sharoitlarni yaratish talab etiladi. Maskanlar zamonaviy kompyuterlar, xizmat telefonlari, tezkor

harakatlanish uchun transport vositalari va videokuzatuv vositalari bilan ta'minlansa, bu ularning imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

Uchinchidan, fuqarolar va jamoatchilik bilan ishonchli hamkorlik tizimini shakllantirish zarur. Buning uchun maskan xodimlari o'zlariga birlashtirilgan hududdagi aholi vakillari, mahalla raisi, xotin-qizlar faollari, maktab va kollej pedagoglari, diniy mutasaddilar bilan muntazam ravishda ochiq muloqotlar o'tkazib borishlari lozim. Har oyda "ochiq eshiklar kuni", profilaktika uchrashuvlari, huquqiy savodxonlik mashg'ulotlarini o'tkazish orqali fuqarolarning maskan ga bo'lgan ishonchini oshirish mumkin.

To'rtinchidan, muvofiqlashtirish va hisobdorlik tizimini kuchaytirish kerak. Maskan faoliyatini yuritishda bir nechta davlat va jamoat tuzilmalari ishtirok etadi. Shu sababli, bu idoralar o'rtasida aniq funksional vazifalar, hisobot mexanizmlari va javobgarlik mezonlari belgilanishi shart. Barcha ishtirokchi idoralar yagona elektron platforma orqali axborot almashuvi asosida ishlashi mumkin.

Beshinchidan, raqamlashtirish va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish samaradorlikni oshiradi. Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati uchun mobil ilovalar, onlayn ariza va murojaat tizimi, "mahalladagi xavf" xaritasi kabi innovatsion yechimlar joriy etilishi kerak. Bu nafaqat fuqarolar bilan bog'lanishni yengillashtiradi, balki kriminogen holatni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi.

Oltinchidan, xalqaro tajribani o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish maskan faoliyatini boyitadi. Masalan, Janubiy Koreyada mahallaviy politsiya mahallalarda doimiy joylashgan va aholi bilan ishonch asosida ishlaydi. Finlyandiya va Buyuk Britaniyada esa jamoatchilik nazorati institutlari politsiya bilan doimiy aloqa qiladi⁸. O'zbekiston sharoitida ham shunday tamoyillarni qo'llash orqali, profilaktika samaradorligini oshirish mumkin.

Shunday qilib, mahalla huquq-tartibot maskanlari nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi tuzilma, balki jamiyat bilan muloqot qiluvchi ijtimoiy institut sifatida takomillashtirilishi lozim. Tizimning har bir bo'g'ini zamonaviylashtirilgan sayin, jamoat xavfsizligi kafolati, fuqarolar osoyishtaligi va qonun ustuvorligi tamoyillari barqaror mustahkamlanadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda mahalla huquq-tartibot maskanlari jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish va fuqarolar bilan bevosita ishlashda muhim institutga aylandi. Ular orqali ichki ishlar organlari faoliyati aholiga yaqinlashtirilib, huquqbuzarliklar manzilli tarzda bartaraf etilmoqda. Biroq, maskanlar faoliyatida ayrim kamchiliklar mavjud bo'lib, ular kadrlar yetishmovchiligi, moddiy-texnik sharoitlarning sustligi, idoralararo muvofiqlashtirishdagi muammolar va fuqarolar ishonchining pastligi kabilardir. Ushbu muammolarni hal qilish uchun xodimlar malakasini oshirish, raqamli yechimlarni joriy etish, jamoatchilik ishtirokini faollashtirish, moddiy baza va xorijiy tajribalardan foydalanish zarur.

Mahalla huquq-tartibot maskanlari samaradorligini oshirish – bu fuqarolarning xavfsiz hayoti, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va mahalla darajasida barqarorlikni mustahkamlashning muhim kafolatidir. Shu sababli, bu tizimni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvarda qabul qilingan "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-sonli qarori;

⁸ Xudoyqulov Dostonjon Dilshod o'g'li, and G'aniyev Farrux Taxirjanovich. "Profilaktika inspektorining fuqarolik jamiyati insitutlari bilano'zaro hamkorligi faoliyatini takomillashtirish va xorijiy davlatlarning tajribalari" Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, vol. 2, no. 1, 2025, pp. 64-69

3. O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 84-sonli buyrug'I;
4. Farrux G'aniyev, Gulandon Ganiyeva, and Nozima Boymuradova. "Biriktirilgan xududda kriminogen vaziyatni tahlil qilishning asosiy yo'nalishlari" Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, vol. 1, no. 16, 2024, pp. 112-114;
5. Xudoyqulov Dostonjon Dilshod o'g'li, and G'aniyev Farrux Taxirjanovich. "Profilaktika inspektorining fuqarolik jamiyati insitutlari bilano'zaro hamkorligi faoliyatini takomillashtirish va xorijiy davlatlarning tajribalari" Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, vol. 2, no. 1, 2025, pp. 64-69.

